

BUXORO VILOYATI TURIZM QISHLOQLARI MISOLIDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING ROLI

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ekologik madaniyatning qishloq turizmining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil sifatidagi o'rni Buxoro viloyatining oltita turizm qishlog'i — Shirin, Qasri Orifon, Ushot, O'ba, Xo'ja Orif va Afshona misolida tadqiq etilgan. Tadqiqot muallifning «O'zbekistonda turizm qishloqlarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi doktorlik (DSc) dissertatsiyasida ishlab chiqilgan Turizm qishlog'ining integrallashgan baholash indeksi (TQIBI) va Raqamli tayyorgarlik indeksi (RTI) metodologiyasiga tayanadi va uni ekologik madaniyat o'lchami bilan boyitadi. Oltita qishloqda 150 nafar respondent (mahalliy aholi va turistlar) ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan Ekologik madaniyat indeksi (EMI) bilan TQIBI o'rtasida izchil moslik aniqlandi: TQIBI yuqori bo'lgan Qasri Orifon (4,31) va Shirin (4,25) qishloqlarida EMI mos ravishda 0,71 va 0,66 ni tashkil etsa, TQIBI past bo'lgan Afshona (2,53) va Xo'ja Orif (2,80)da EMI 0,41–0,45 oralig'ida qoldi. Shuningdek, aholining 72 foizi ekoturizm tashabbuslarida ishtirok etishga tayyor bo'lsa-da, 45 foizi yetarli ekologik bilimga ega emasligi aniqlandi. Maqolada Buxoro viloyati bo'yicha 2015–2024 yillar davomida 11 ta tuman kesimida shakllangan panel ma'lumotlar asosidagi ekonometrik natijalar (qishloq aholisi ulushi va aholi boshiga investitsiyalar omillarining statistik ahamiyatliligi) EMI bilan bog'liq xulosalarni qo'llab-quvvatlaydi. Maqola yakunida EMIning «Buxoro turizm qishlog'i koridori» klaster modeli va Raqamli-operatsion signal indeksi (DSI) monitoring tizimiga integratsiyalash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:

Ekologik madaniyat, turizm qishlog'i, TQIBI, Raqamli tayyorgarlik indeksi, Buxoro viloyati, barqaror rivojlanish, «Best Tourism Villages», qishloq turizmi klasteri, mahalliy jamoa ishtiroki, ekologik amaliyot.

1. Kirish (Introduction)

Jahon turizm bozorida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish, madaniy va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda turistik oqimlarni yirik shahar markazlaridan hududlarga qayta taqsimlash masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda dunyo bo'yicha 1,4 mlrd xalqaro turist tashrifi qayd etilgan bo'lib, shu munosabat bilan «Best Tourism Villages by UN Tourism» tashabbusi doirasida turizm qishloqlari boshqariladigan qishloq destinatsiyasi modeli sifatida tadqiq etilmoqda.

Buxoro viloyatida 2025 yil davomida oltita qishloq — Shirin (Vobkent tumani), Qasri Orifon (Ko'gon tumani), Ushot (Jondor tumani), O'ba (Romitan tumani) rasmiy «turizm qishlog'i» maqomini oldi, Xo'ja Orif (Shofirkon tumani) esa «7 pir» ziyoratgoh marshruti doirasida, Afshona (Peshku tumani) esa Abu Ali ibn Sino tavallud topgan joy sifatida alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu qishloqlarning rivojlanish darajasini kompleks baholash maqsadida muallif tomonidan Turizm qishlog'ining integrallashgan baholash indeksi ($TQIBI = 0,3B_i + 0,7D_i$) ishlab chiqilgan bo'lib, unda barqarorlik (jumladan, ekologik amaliyot, tozalik, chiqindilarni boshqarish, merosni asrash va tashrif oqimining resurslarga bosimi) diagnostik darajadagi ko'ndalang mezon sifatida inobatga olinadi.

Shu bilan birga, mazkur ko'ndalang mezon hozircha yagona diagnostik ko'rsatkich («ekologik amaliyot») darajasida qolib, ekologik madaniyatning to'laqonli, ko'p blokli miqdoriy

o'Ichovi sifatida operatsionallashtirilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi — aynan ushbu metodologik bo'shliqni to'ldirish: ekologik madaniyatni mustaqil, to'rt bloklik Ekologik madaniyat indeksi (EMI) sifatida ishlab chiqish va uni Buxoro viloyatining oltita turizm qishlog'i misolida TQIBI hamda Raqamli tayyorgarlik indeksi (RTI) bilan empirik bog'lash. Tadqiqotning vazifalari: 1) ekologik madaniyat tushunchasini TQIBI metodologiyasi kontekstida nazariy asoslash; 2) EMI ni ishlab chiqish va uni oltita qishloqda sinovdan o'tkazish; 3) EMI bilan TQIBI/RTI o'rtasidagi bog'liqlikni empirik asoslash; 4) «Buxoro turizm qishlog'i koridori» klaster modeliga ekologik madaniyatni integratsiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi milliy siyosat darajasida ham mustahkam asosga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi 16 turizm infratuzilmasini kengaytirish, turizm qishloqlari sonini oshirish va mintaqaviy raqobatbardoshlikni yaxshilashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Xalqaro darajada esa BMT Turizm tashkilotining «Best Tourism Villages» dasturi [19] qishloq destinatsiyalarini to'qqizta baholash yo'nalishi (jumladan, tabiiy va madaniy resurslar, iqtisodiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, madaniy barqarorlik, infratuzilma va boshqaruv) bo'yicha ko'rib chiqadi. Mazkur xalqaro karka ekologik barqarorlikni alohida baholash yo'nalishi sifatida tan oladi, biroq uni milliy yoki mintaqaviy darajada miqdoriy jihatdan qanday o'lchash kerakligi bo'yicha batafsil uslubiyot taqdim etmaydi — bu esa mazkur maqoladagi EMIning amaliy ahamiyatini yana bir bor kuchaytiradi.

2. Adabiyotlar tahlili (Literature review)

Qishloq turizmi ekologik barqarorlikni ta'minlash, mahalliy aholi farovonligini oshirish va madaniy merosni saqlash imkoniyatlarini yaratadigan ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda [3]. Richard Sharpli [4] Kipr misolida qishloq turizmining diversifikatsiyasi muammolarini tadqiq etar ekan, turizm resurslarining barqarorligi mahalliy jamoalarning tabiiy muhitga bo'lgan munosabati bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Juls Pretti [5] ishlab chiqqan ijtimoiy kapital nazariyasi esa ekologik madaniyatning jamoaviy o'lchamini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi: mahalliy jamoalarda o'zaro ishonch va birgalikda harakat qilish me'yorlari yuqori bo'lganda, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish imkoniyatlari ortadi.

Qodirov [6] hududlarda ekologik turizm saloxiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotida ekologik amaliyotlarning turizm destinatsiyasi raqobatbardoshligiga bevosita ta'sirini asoslaydi; mazkur yondashuv muallifning o'z doktorlik dissertatsiyasida TQIBI modelining barqarorlik mezonini shakllantirishda nazariy negiz sifatida foydalanilgan [7]. Xususan, ushbu dissertatsiyada barqarorlik blokida «ekologik amaliyotlar, tozalik, chiqindilarni boshqarish, merosni asrash va tashrif oqimining resurslarga bosimi» diagnostik darajadagi ko'rsatkich sifatida inobatga olinishi asoslangan [7]. Shu bilan birga, dissertatsiyada ta'kidlanganidek, barqarorlik alohida mustaqil blok sifatida emas, balki olti asosiy blokka ko'ndalang mezon sifatida integratsiyalashtirilgan — bu esa ekologik madaniyatning chuqur, ko'p o'lchovli tahlilini cheklovchi metodologik omil hisoblanadi va mazkur maqolaning ilmiy bo'shlig'ini belgilaydi [7].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida Karimova [8] ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni, Xamrayev [9] esa qishloq turizmi va ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilgan. Mirzayev [10] O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, Sharipova [11] esa ekologik ta'lim va madaniyatning jamiyat rivojlanishidagi rolini yoritgan.

Me'yoriy-huquqiy bazaga ko'ra, «Turizm to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [12] hamda «2030 yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish Kontseptsiyasi» [13] aholida ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022–2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishga oid dasturida Afshona qishlog'ini turizm shaharchasiga aylantirish vazifasi belgilangan [7], bu esa hududda ekologik va madaniy barqarorlikni o'zaro uyg'unlashtiruvchi boshqaruv mexanizmlarining zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Destinatsiya raqobatbardoshligi nazariyasi nuqtai nazaridan, Richi va Krauch [20] barqaror destinatsiya raqobatbardoshligi nafaqat meros qilib olingan resurslarga, balki samarali destinatsiya boshqaruvi va uni qo'llab-quvvatlovchi omillarga ham bog'liqligini ta'kidlaydi. Duayer va Kim 15 esa infratuzilma, turizm xizmatlari, siyosat va boshqaruvni destinatsiya raqobatbardoshligi modellariga integratsiyalashning muhimligini ko'rsatadi. Ushbu ikki nazariy yondashuv muallifning TQIBI modelidagi bazaviy (B_i) va diagnostik (D_i) komponentlarga bo'linishida bevosita aks etadi: B_i meros qilib olingan resurs salohiyatini, D_i esa boshqariluvchi raqobatbardoshlik omillarini (jumladan, institutsional boshqaruv va raqamli tayyorgarlikni) ifodalaydi. Mazkur maqolada ekologik madaniyat (EMI) aynan shu D_i komponentining barqarorlik mezonini chuqurlashtiruvchi qo'shimcha o'lchov sifatida joylashtiriladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik madaniyat turizm qishlog'i kontseptsiyasida nazariy jihatdan tan olingan bo'lsa-da (jumladan, TQIBI metodologiyasining barqarorlik mezoni doirasida), uning qishloq darajasida mustaqil, to'rt bloklik miqdoriy indeks sifatidagi operatsionallashtirilishi va TQIBI/RTI bilan statistik bog'liqligi hozirgacha alohida tadqiq etilmagan. Mazkur metodologik bo'shliq quyida taqdim etiladigan EMI ni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

3. Tadqiqot materiallari (Materials)

1. Birlamchi ma'lumotlar — 2025–2026 yillar davomida Buxoro viloyatining oltita turizm qishlog'ida (Shirin, Qasri Orifon, Ushot, O'ba, Xo'ja Orif, Afshona) o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ($n=150$, har bir qishloqda o'rtacha 25 nafar — 15 mahalliy aholi va 10 turist);

2. Ikkilamchi ma'lumotlar — muallifning «O'zbekistonda turizm qishloqlarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish» (Buxoro davlat universiteti, 08.00.17, DSc) doktorlik dissertatsiyasida ishlab chiqilgan TQIBI va RTI (Delphi ekspertizasi, $n=18$, Kendall $W=0,74$) natijalari, shuningdek Buxoro viloyati statistika boshqarmasi va SIAT tizimining 2015–2024 yillar bo'yicha 11 ta tuman kesimidagi panel ma'lumotlari;

3. Xalqaro manbalar — UN Tourism Best Tourism Villages (2026 Edition) baholash mezonlari, shuningdek yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy adabiyotlar.

4. Tadqiqot uslubiyoti (Methods)

1) Manbashunoslik va kontent-tahlil — UN Tourism, milliy normativ-huquqiy manbalar va muallifning dissertatsion tadqiqoti tahlil qilindi.

2) Sotsiologik so'rov — oltita qishloqda tabaqalashtirilgan tasodifiy tanlov usulida 150 nafar respondent (aholi va turistlar) ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi.

3) Iqtisodiy-statistik tahlil — Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali EMI bilan TQIBI, RTI va turist qoniqish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi; shuningdek muallifning 2015–2024 yillar, 11 tuman, $N=110$ kuzatuvli panel ekonometrik modeli (tuzatilgan determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,575$, ichidagi within $R^2=0,31$) natijalari qiyosiy kontekst sifatida jalb qilindi [7].

4) Qiyosiy baholash — TQIBIning (B_i , D_i , TQIBI $_i$) qiymatlari EMI bilan qiyoslandi [7].

5) Ekspert baholash — 5 nafar turizm va ekologiya mutaxassisi ishtirokida EMI bloklarining vaznlari shakllantirildi (Delfi usuli).

Ekologik madaniyat darajasi 4 ta blok orqali 0–4 ballik Likert shkalasida o'lchandi, so'ngra har bir ko'rsatkich 0 dan 1 gacha normallashtirildi. Statistik ishlov berish Microsoft Excel va SPSS dasturiy vositalarida amalga oshirildi; ahamiyatlilik darajasi $p<0,05$ deb qabul qilindi. Olti qishloq darajasidagi TQIBI–EMI taqqoslash esa namuna hajmi cheklanganligi ($n=6$) sababli inferentsial emas, tavsifiy (deskriptiv) tarzda talqin qilindi.

EMIning TQIBI bilan bog'liqligini to'g'ri talqin qilish uchun TQIBIning ichki tuzilishini qisqacha eslatib o'tish zarur [7]. TQIBI olti blokdan iborat: resurs salohiyati (R_i), mehmondo'stlik va turizm xizmatlari (S_i), transport qulayligi (T_i) — bular bazaviy komponent $B_i=(R_i+S_i+T_i)/3$ ni tashkil etadi; raqamli tayyorgarlik (DR_i), institutsional boshqaruv (I_i) va hamjamiyat/mahalliy iqtisodiy ulanish (C_i) — bular esa diagnostik komponent $D_i=(DR_i+I_i+C_i)/3$ ni tashkil etadi. Barqarorlik mezoni (jumladan ekologik amaliyot) aynan ushbu diagnostik komponent doirasida

ko'ndalang tarzda hisobga olinadi. Demak, EMI metodologik jihatdan D_i komponentining barqarorlik o'lchamini kengaytiruvchi qo'shimcha diagnostik modul sifatida qaralishi mumkin, bu esa EMI–TQIBI mosligining nazariy izohini ta'minlaydi.

5. Natijalar va muhokama (Results and Discussion)

So'rovnomada jami 150 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning qishloqlar va toifalar bo'yicha taqsimoti 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Respondentlarning qishloqlar va toifalar bo'yicha taqsimoti (n=150).

Qishloq (tumani)	Mahalliy aholi	Turistlar	Jami
Shirin (Vobkent)	15	10	25
Qasri Orifon (Ko'gon)	15	10	25
Ushot (Jondor)	15	10	25
O'ba (Romitan)	15	10	25
Xo'ja Orif (Shofirkon)	15	10	25
Afshona (Peshku)	15	10	25
Jami	90	60	150

Ekologik madaniyatni miqdoriy baholash uchun ishlab chiqilgan EMI quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$EMI = (\sum_{i=1}^n w_i \times N_i) / n$$

bu yerda EMI — Ekologik madaniyat indeksi (0 dan 1 gacha); w_i — i-chi ko'rsatkichning vazni ($\sum w_i=1$); N_i — i-chi ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymati; n — ko'rsatkichlar soni ($n=4$). EMIning to'rt bloki dissertatsiyada ta'kidlangan barqarorlik mezonining tarkibiy qismlariga mos ravishda shakllantirildi [7]: E1 — ekologik bilim (tozalik va chiqindilarni boshqarish qoidalari bo'yicha ogohlik), vazni 0,20; E2 — qadriyat va munosabat (tabiiy va madaniy merosni asrashga shaxsiy mas'uliyat), vazni 0,25; E3 — amaliy xulq-atvor (chiqindilarni saralash, suv-energiya tejami, tashrif oqimining resurslarga bosimini kamaytirish amaliyotlari), vazni 0,30; E4 — jamoatchilik ishtiroki (hashar, eko-aksiyalar, community-based tourism tashabbuslarida qatnashish), vazni 0,25.

Dissertatsiyada hisoblangan TQIBI va RTI qiymatlari [7] hamda mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan EMI qiymati 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

EMIning TQIBI va RTI bilan qishloqlar kesimidagi taqqoslashi

Qishloq	TQIBI (0,3B+0,7D)	RTI	EMI	Daraja
Qasri Orifon	4,31	4,71	0,71	O'rta-yuqori
Shirin	4,25	3,49	0,66	O'rta-yuqori
Ushot	3,02	1,73	0,52	O'rta
O'ba	2,99	3,45	0,47	O'rta
Xo'ja Orif	2,80	3,04	0,45	O'rta
Afshona	2,53	2,84	0,41	O'rta

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, EMIning qishloqlar bo'yicha tartibi (Qasri Orifon > Shirin > Ushot > O'ba > Xo'ja Orif > Afshona) deyarli to'liq TQIBI tartibiga mos keladi — bu $n=6$ namunada tavsifiy darajada kuzatilgan moslik bo'lib, inferentsial statistik xulosa uchun yetarli emas, ammo nazariy jihatdan mazmunlidir: ekologik madaniyat darajasi yuqori bo'lgan qishloqlarda odatda merosni asrash va xizmat sifati (diagnostik komponent D_i) ham nisbatan yaxshi shakllangan.

Xususan, Qasri Orifon qishlog'ida Xoja Orif Revgariy maqbarasi atrofidagi ziyoratgoh hududining tozaligi va ekologik tartib-qoidalarga rioya qilinishi, shuningdek 593 ta sharh va 4,9 reyting bilan yuqori raqamli ko'rinuvchanlik [7] EMIning E2 (qadriyat) va E4 (jamoatchilik) bloklarida yuqori baholanishiga xizmat qildi. Shirin qishlog'ida esa an'anaviy non yopish, asal tortish va tosh tegirmon kabi ekologik jihatdan barqaror hunarmandchilik amaliyotlari [7] E3 (amaliy xulq-atvor) blokini mustahkamlaydi. Aksincha, Ushot qishlog'ida «invisible destination» hodisasi, ya'ni resurs va faoliyat mavjud bo'lsa-da, bozorning uni «ko'rmasligi» [7], EMIning E4 blokida past ko'rsatkichga olib keldi — bu yerda jamoaviy faoliyat mavjud, ammo uning tashqi ko'rinuvchanligi va tan olinishi yetarli emas.

5.4. Korrelyatsion tahlil natijalari

Respondent darajasidagi EMI bilan turizm samaradorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentlari 3-jadvalda keltirilgan (n=150).

3-jadval.

EMI va turizm samaradorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari (n=150).

Ko'rsatkichlar juftligi	r	p-qiyamat	Xulosa
EMI ↔ turist qoniqish darajasi	0,59	<0,01	yuqori, ijobiy bog'liqlik
EMI ↔ qayta tashrif niyati	0,51	<0,01	o'rtadan yuqori, ijobiy bog'liqlik
EMI ↔ mahalliy daromaddan qoniqish	0,47	<0,05	o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik
EMI ↔ ekoturizm tashabbusida ishtirok niyati	0,55	<0,01	o'rtadan yuqori, ijobiy bog'liqlik

Barcha koeffitsiyentlar statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0,05$) bo'lib, ekologik madaniyat darajasi bilan turist qoniqishi va qayta tashrif niyati o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Ushbu natija dissertatsiyada keltirilgan 2015–2024 yillar, 11 tuman kesimidagi panel ekonometrik natijalar bilan ham mazmunan uyg'un: qishloq aholisi ulushi (RuralShare) omili joylashtirish infratuzilmasining shakllanishiga statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatgan (koeffitsiyent +27,416; $p < 0,05$) [7]. Boshqacha aytganda, qishloq xususiyatlari — jumladan mahalliy turmush tarzi va an'anaviy (ko'p hollarda ekologik jihatdan barqaror) xo'jalik amaliyotlari saqlangan hududlar — turizm infratuzilmasini qabul qilish salohiyati yuqoriroq bo'ladi, bu esa EMI bilan TQIBI/RTI o'rtasida kuzatilgan tavsifiy moslikni makro darajada ham qo'llab-quvvatlaydi.

So'rovnoma ko'ra, respondentlarning 72 foizi (108 nafar) ekoturizm tashabbuslarida (hashar, eko-aksiyalar, ziyoratgoh va tarixiy obidalar atrofini tozalash tadbirlari) ishtirok etishga tayyorligini bildirgan, ammo «yashil» tushunchalar va ekologik qoidalar bo'yicha o'zini yetarli bilimli deb hisoblaganlar ulushi atigi 55 foizni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval.

Jamoa ishtiroki va ekologik bilim darajasi bo'yicha so'rovnoma natijalari (n=150).

Savol	Ijobiy/tayyor, %	Salbiy/noma'lum, %
Ekoturizm tashabbuslarida ishtirok etishga tayyorman	72	28
"Yashil" tushunchalar va ekologik qoidalar bo'yicha bilimim yetarli	55	45
Merosni asrash qoidalarini bilaman (masalan, ziyoratgoh atrofi)	61	39
Chiqindilarni doimiy ravishda sarayman	44	56

Chiqindilarni saralash ko'rsatkichining (44%) boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan pastligi, ayniqsa Ushot va O'ba kabi rasmiy maqomni yaqinda olgan qishloqlarda, amaliy chiqindilarni boshqarish infratuzilmasining hali shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Ekologik madaniyatni amaliy boshqaruv darajasida monitoring qilish maqsadida quyidagi KPI ko'rsatkichlari taklif etiladi (5-jadval).

5-jadval.

Turizm qishloqlari uchun taklif etilayotgan KPI ko'rsatkichlari.

Belgi	KPI nomi	Joriy qiymat (o'rtacha)	Maqsadli qiymat (2030)
T1	Eko-sertifikatli ob'yektlar ulushi, %	9	30
T2	Turist boshiga chiqindi hosil bo'lishi, kg/kun	1,9	1,2
T3	Ziyoratgoh/merosxona atrofi tozaligi (ekspert balli, 1–5)	3,4	4,5
T4	Mahalliy daromad ulushi (qo'shilgan qiymatda), %	31	50
T5	Noofitsial chiqindixonalar soni (son/qishloq)	2,1	≤0,5

Ushbu ko'rsatkichlar «Buxoro turizm qishlog'i koridori» klaster modeli doirasida TQIBI va Raqamli-operatsion signal indeksi (DSI) bilan birga muntazam monitoring qilinishi tavsiya etiladi [7].

KPI ko'rsatkichlarining qishloqlar kesimidagi differentsiatsiyasi ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Masalan, T5 (norasmiy chiqindixonalar soni) ko'rsatkichi rasmiy maqomni eng so'nggi olgan qishloqlarda (Ushot, O'ba) nisbatan yuqori bo'lishi kutiladi, chunki chiqindilarni boshqarish infratuzilmasi maqom berilgandan keyin shakllanish jarayonida bo'ladi. Shu bois T1–T5 ko'rsatkichlarini barcha olti qishloq uchun bir xil maqsadli qiymat bilan emas, balki har bir qishloqning TQIBI guruhiga (I, II yoki III tip) moslashtirilgan bosqichma-bosqich maqsadli trayektoriya bilan belgilash tavsiya etiladi. Bunday differentsiallashtirilgan yondashuv, ayniqsa, cheklangan moliyaviy resurslar sharoitida, ustuvor aralashuv choralari aniqroq yo'naltirish imkonini beradi.

6. Muhokama (Discussion)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, EMI bilan TQIBI o'rtasidagi moslik tasodifiy emas, balki metodologik jihatdan izchil: TQIBIning diagnostik komponenti (D_i) allaqachon «ekologik amaliyot»ni bir ko'rsatkich sifatida o'z ichiga oladi [7], EMI esa shu ko'rsatkichni to'rt blokli, chuqurroq o'lchovga aylantiradi. Shu bois EMIning alohida, mustaqil tadqiqot vositasi sifatidagina emas, balki TQIBIning barqarorlik mezonini «diagnostika ichida diagnostika» tarzida kengaytiruvchi qo'shimcha modul sifatida ko'rish mumkin.

Sharpli [4] tomonidan ilgari surilgan «ekologik mas'uliyat past bo'lgan hududlarda turizm resurslarining tezda degradatsiyaga uchrashi» tezisi Afshona va Xo'ja Orif misolida (EMI mos ravishda 0,41 va 0,45, past E3 va E4 bloklari) o'z tasdig'ini topdi — bu qishloqlarda yuksak ramziy kapital (Ibn Sino tavallud joyi, «7 pir» ziyoratgoh marshruti) mavjud bo'lsa-da, ekologik amaliyot darajasi nisbatan past qolmoqda. Pretti [5] tomonidan ta'kidlangan jamoaviy harakat ahamiyati esa Qasri Orifonning yuqori E4 ko'rsatkichida (jamoatchilik ishtiroki) namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyada aniqlangan yana bir muhim hodisa — Ushot va O'ba qishloqlari o'rtasidagi «inversiya» (Ushotda resurs = 3,00, raqamli tayyorgarlik = 2,00; O'badada esa resurs = 2,67, raqamli tayyorgarlik = 3,50) [7] — EMI nuqtai nazaridan ham muhim metodologik xulosaga olib keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, raqamli ko'rinishchanlik va ekologik amaliyot bir-biridan nisbatan mustaqil o'lchamlar bo'lib, yuqori ekologik madaniyatga ega qishloq albatta yuqori raqamli tayyorgarlikka

ega bo'laermaydi (va aksincha). Ushotda jamoa darajasida chiqindilarni boshqarish va hashar an'analari mavjud bo'lsa-da (EMIda E4 nisbatan baland), bu amaliyot raqamli platformalarda deyarli aks etmaydi — natijada «ko'rinmas ekologik amaliyot» hodisasi yuzaga keladi. Boshqaruv nuqtai nazaridan bu holat shuni anglatadiki, Ushot kabi qishloqlar uchun ustuvor vazifa yangi ekologik dasturlar yaratish emas, balki mavjud amaliyotni raqamli jihatdan hujjatlashtirish va targ'ib qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, olingan natijalar bir qator cheklovlarga ega. Birinchidan, olti qishloq darajasidagi TQIBI–EMI taqqoslash tavsifiy xususiyatga ega ($n=6$ — inferentsial statistika uchun yetarli emas), shuning uchun bu borada yakuniy xulosa chiqarish uchun qishloqlar sonini kengaytirgan holda kelgusi tadqiqotlar zarur. Ikkinchidan, so'rovnoma o'z-o'zini baholashga asoslanganligi sababli javoblarda ijtimoiy maqbullikka moyillik ehtimoli mavjud. Uchinchidan, dissertatsiyadagi panel ekonometrik modelda ($R^2=0,575$; within $R^2=0,31$) ekologik madaniyat o'zgaruvchisi mustaqil omil sifatida alohida kiritilmagan — u RuralShare kabi umumiyroq ko'rsatkich orqali bilvosita aks etgan, shuning uchun kelgusi tadqiqotlarda EMIning bevosita ekonometrik modelga tushuntiruvchi omil sifatida kiritish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Shunga qaramay, natijalar aniq ko'rsatadiki, ekologik madaniyat darajasini oshirish nafaqat ekologik, balki TQIBI va RTI orqali o'lganadigan raqobatbardoshlikka ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu xulosa «Ekologik madaniyat kontseptsiyasi» [13] va «Turizm to'g'risida»gi Qonunda [12] belgilangan ustuvor yo'nalishlarni, shuningdek muallifning «Buxoro turizm qishlog'i koridori» klaster modelini [7] amaliyotga tatbiq etish zaruratini bir-birini to'ldiruvchi tarzda tasdiqlaydi.

7. Xulosa va tavsiiylar (Conclusion)

1. Ekologik madaniyat Buxoro viloyati turizm qishloqlarining barqaror rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib, bu tezis EMI bilan TQIBI/RTI o'rtasidagi izchil moslik orqali (olti qishloq misolida) hamda 150 nafar respondent ishtirokidagi korrelyatsion tahlil orqali ($r=0,47-0,59$; $p<0,05-0,01$) empirik jihatdan asoslandi.

2. EMI TQIBI metodologiyasining barqarorlik mezonini (hozirda bir diagnostik ko'rsatkich — «ekologik amaliyot» — bilan cheklangan) to'rt blokli, chuqurroq o'lganovga kengaytiruvchi amaliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

3. Aholining ekoturizmga ishtirok etishga tayyorligi (72%) yuqori bo'lsa-da, ekologik bilim darajasi (55%) va chiqindilarni saralash amaliyoti (44%) nisbatan past — bu yangi maqom olgan qishloqlar (Ushot, O'ba)da muntazam ekologik ta'lim va infratuzilma dasturlarining zarurligini ko'rsatadi.

4. EMIning «Buxoro turizm qishlog'i koridori» klaster modeli va DSI monitoring tizimiga integratsiyalash, shuningdek taklif etilgan KPI ko'rsatkichlarini (T1–T5) TQIBI bilan birga har yili yangilab borish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy tavsiiylar

1. Ushot va O'ba kabi rasmiy maqomni yaqinda olgan qishloqlarda chiqindilarni boshqarish infratuzilmasini ustuvor tartibda rivojlantirish;

2. Qasri Orifon va Xo'ja Orif («7 pir» marshruti) hamda Shirin uchun ziyoratgoh va merosxona hududlari atrofida eko-sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish;

3. Afshona qishlog'ini turizm shaharchasiga aylantirish dasturi doirasida ekologik rejalashtirishni boshida (early-stage) kiritish, toki yuksak ramziy kapital ekologik jihatdan barqaror infratuzilma bilan uyg'unlashsin;

4. EMIning yillik asosda TQIBI va DSI bilan birga «Buxoro turizm qishlog'i koridori» monitoring paneliga kiritish;

5. Ushot kabi «ko'rinmas ekologik amaliyot»ga ega qishloqlarda raqamli hujjatlashtirish va mazmun yaratish (kontent-marketing) dasturlarini joriy etish, toki mavjud jamoaviy ekologik kapital bozor tomonidan tan olinsin;

6. Kelgusi tadqiqotlarda qishloqlar sonini kengaytirish va EMIning panel ekonometrik modelga bevosita tushuntiruvchi omil sifatida kiritish.

Adabiyotlar (References)

1. UN Tourism. Best Tourism Villages by UN Tourism. Areas of Evaluation. 2026 Edition. Madrid, 2026.
2. UNESCO (2021). Environmental Education and Sustainable Development. Paris.
3. Lane B., Kastenholz E. (2015). Rural tourism: The evolution of practice and research approaches – towards a new generation concept? *Journal of Sustainable Tourism*, 23(8), 1133–1156.
4. Sharpley R. (2002). Rural tourism and the challenge of tourism diversification: The case of Cyprus. *Tourism Management*, 23(3), 233–244.
5. Pretty J. (2003). Social capital and the collective management of resources. *Science*, 302(5652), 1912–1914.
6. Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish: diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – 68 b.
7. Karimova N. (2023). Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish. Toshkent: Fan.
8. Xamrayev A. (2024). Qishloq turizmi va ekoturizmning iqtisodiy samaradorligi. Samarqand davlat universiteti ilmiy to‘plami.
9. Mirzayev B. (2022). O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari. *Turizm va jamiyat*, №3.
10. Sharipova M. (2021). Ekologik ta’lim va madaniyatning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati. Toshkent: Iqtisod.
11. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ-549-son, 2019 yil 18 iyul.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030 yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish Kontseptsiyasi»ni tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-184-son qarori, 2025 yil 15 may.
13. UN Tourism. Best Tourism Villages by UN Tourism. Areas of Evaluation. 2026 Edition. Madrid, 2026.
14. Ritchie J.R.B., Crouch G.I. *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. – Wallingford: CABI Publishing, 2003. – 290 p.
15. Dwyer L., Kim C. Destination competitiveness: determinants and indicators // *Current Issues in Tourism*. – 2003. – Vol. 6, No. 5. – P. 369–414.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni, 2023 yil 11 sentyabr.